# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024

№ 2




08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati


74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

*Elektron nashr. 598 sahifa.*
*E'lon qilishga 2024-yil 29-fevralda ruxsat etildi.*



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston fanlar akademiyasi akademigi
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., OʻzR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri oʻrinbosari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., OʻzR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar boʻyicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., "OʻIRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TMI professori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d. TDIU professori
**Poʻlatov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Musyeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamgʻarmasi ijrochi direktori oʻrinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** t.f.f.d., TAQU katta oʻqituvchisi
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Fargʻona davlat universiteti dotsenti
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon oʻgʻli,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi
**Utayev Uktam Choriyevich,** OʻzR Bosh prokuraturasi boshqarma boshligʻi oʻrinbosari
**Ochilov Farxod,** OʻzR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti boʻlimi boshligʻi
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta oʻqituvchisi

**Ekspertlar kengashi:**
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi



Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, OʻzR Tabiat resurslari vazirligi, OʻzR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

# MUNDARIJA

Ilm-fanga baxshida umr ....8
**Baxtiyor Islamov**

Kichik biznesni rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotni keng tatbiq qilishning ahamiyati ....10
**Gulnora Abdurahmonova Kalandarovna, Sanjar Baxodirovich G'oipnazarov**

Brand Capital as a Determinant of Institutional Prestige and Student Choice in the Higher Education System ....16
**Zufarova Nozima Gulamiddinovna**

Inson va atrof-muhit dialektikasi: nomutanosiblik ko'rsatkichlari va ekologik muammolar ....24
**Butaboyev Maxammadjon Tuychiyevich, Maxmudov Nosir Maxmudovich**

Yashil budjetlashtirish va uni O'zbekistonda joriy etish istiqbollari ....30
**Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi**

Iqtisodiyotda ta'lim va fan integratsiyasining asosiy yo'nalishlari ....35
**Yormatov Ilmidin Toshmatovich**

Transport vositalari va yo'llar turizm transport infratuzilmasini rivojlantirishning muhim omilidir ....39
**Agzamov Shaxboz Akmalovich**

Bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish ....44
**A. X. Salamov**

Biznes-reja baliqchilik xo'jaligi rivojlanishi uchun asos sifatida ....48
**Dosmuratova Shaxista Kengashovna**

Mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va uning lizing munosabatlari rivojlanishi bilan bog'liqligi ....55
**Axmediyeva Aliya Toxtarovna**

Turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ....63
**Ziyadullayev Ilhom Narkabilovich**

Tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini oshirish muammolari va ularni bartaraf etish yo'llari....67
**Shamsiyev Nodir Muratovich**

Hududlarni rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish masalalari....72
**Shagazatov Oybek bahodirovich**

Hududlar biznes muhitini rivojlantirish va samarali boshqarish yo'nalishlari ....76
**Davlatov Sanjar Abdimannonovich**

Ijtimoiy rivojlanish xulq-atvor paradigmasida yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning nazariy asoslari ....80
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

Korxonalar innovatsion faoliyatida raqamli transformatsiyaning muhim yo'nalishlari ....84
**Yuldasheva Kamola Miraliyevna**

O'zbekistonda agroturizmni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida) ....89
**Yoriyeva Farangiz Murodillayevna**

Innovatsion tadbirkorlik muhitini kompleks baholashda xalqaro tashkilotlar tajribasi....94
**Nazarova Umida Avazovna**

Turizm faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish samaradorligini oshirishning ayrim usullari....98
**Mirzaxodjayev Alisher Botirovich**

Globallashuv sharoitida transchegaraviy suv resurslardan samarali foydalanishni boshqirish ....103
**Mirzayev Musurmon Umidullayevich**

Surxondaro viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati....108
**Fayziyeva Aziza Azamat qizi**

Ta'lim muassasalarida xarajatlarni moliyaviy nazorat etishning samaradorligi tahlili....113
**Eshonqulov Davlatjon Rajabboyevich**

Ta'minot zanjirini boshqarishda transport logistikasi usullarini takomillashtirish....119
**Zoxidova Nazokat Berdimurot qizi**

Blokcheyn texnologiyasida xavfsizlik masalalari ....123
**Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich**

Развитие цифровой трансформации банковского сектора Республики Узбекистан ....129
**Абдурахманова Матлуба Махамадаминовна**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Asosiy fondlarni hisoblash va baholash usullarini takomillashtirish istiqbollari......135
**Rixsimbayev Odiljon Qobiljonovich**

Marketingda tovar harakati tizimini optimallashtirish va modellashtirish......141
**Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Kamola Abdujabborovna Pardayeva**

Iqtisodiy rivojlanish uchun strategik taqsimlash strategiyalari:
Investitsion Fond Portfellarning qiyosiy tahlili......148
**Sultonboeva Munira bahodirovna**

Soliq munosabatlarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati: ilmiy-nazariy qarashlar......154
**Axrorov Zarif Oripovich, Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li**

Взаимосвязь инвестиционной стратегии с оценкой эффективности инвестиционного проекта......159
**С. С. Алиева, А. Назаров**

Erkin iqtisodiy zonalarning faoliyati va boshqaruv mexanizmini takomillashtirish......167
**Sheraliyeva Saida Azatovna**

Xizmat safari xarajatlari hisobining huquqiy asoslari......170
**Ergashev Sarvar Xudoynazarovich**

Инклюзивное образование и его особенности......175
**Зайнутдинова Умида Джалоловна**

Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari......179
**Qurbonov Muxiddin Abdullayevich**

Mamlakatda soliq qarzdorligi vujudga kelishining asosiy sabablari va ularni qisqartirish yo'llari......184
**Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li**

Mulk qiymatini baholash tushunchasi, baholash obyektlari, baholanadigan qiymat turlari......188
**Izbosarov Boburjon Bahriddinovich, Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li**

O'zbekistonda sug'urta xizmatlarining zamonaviy transformatsiyasi......193
**G. Adilova**

Biznes subyektlarida samaradorlik masalalarini o'yinlar nazariyasi usuli bilan baholash......197
**Mardiyev Nurali**

Yengil sanoatda "lean production" konsepsiyasini tatbiq etishning amaliy jihatlari......203
**Yaxyayeva Inobat Karimovna**

Soliq salohiyatini baholash usullari va ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'siri tahlili......207
**Borotov Sharofiddin Jumaqul o'g'li**

Ko'chmas mulk bozorini baholashning institutsional asoslari......213
**Ishonqulov Nizamjon Fayzullayevich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm xizmatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari......221
**Amriyeva Shaxzoda Shuxratovna**

O'zbekistonning bank-moliya tizimi hamda unda Islom moliyasi
instrumentlarini jalb etishdagi joriy tendensiyalar......226
**Eshimov Alisher Dusmurodovich**

Tashqi savdoda notarif usullarni qo'llashning iqtisodiy oqibatlarini aniqlash
metodologiyasi (rivojlangan davlatlar tajribasi)......234
**Norqobilov Akobir Iso o'g'li**

Reklama xizmatlari va uning subyektlar samaradorligini oshirishdagi imkoniyatlari......240
**Rabbimov Elbek Abdulloyevich**

Ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish asoslari......245
**Imonqulov Nuriddin Qo'shmon o'g'li**

Tijorat banklari biznes ekotizimini rivojlantirishning nazariy asoslari......250
**Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li**

Majburiy tibbiy sug'urtaning vujudga kelishi va o'ziga xos xususiyatlari......256
**Kenjayev Soxib Sayfiyevich**

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy soliq ma'murchiligini joriy etish orqali budjet-soliq siyosati
samaradorligini yanada oshirish......260
**Yuldasheva Shaxnoza Xojiakbar qizi**

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida derivativlar bozorining roli......266
**Shokirov Mirkamol Mirolim o'g'li**

Boshqaruv hisobida mas'uliyat markazlarini tashkil etish masalalari......274
**Sobirov Otabek Olimjonovich**

Davlat moliyasini boshqarishda moliyaviy nazorat usullaridan samarali foydalanish yo'llari ....... 277
**Kultayev Farxod Shavkatovich**

Tijorat banklari foydasi va rentabillik ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi omillar tahlilini takomillashtirish ....... 281
**Normo'minov Temurbek Sheraliyevich**

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari aktivlar sifatini oshirish yo'llari ....... 284
**To'ychiyev Otabek Shamshiyevich**

Venchur kapitalining mohiyati va O'zbekistonda venchur tizimini rivojlantirishning institutsional asoslari ....... 288
**Tadjibayeva Nigora Gulomjonovna**

Innovatsiyalar: zamonaviy iqtisodiyot uchun innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash zarurati ....... 293
**Malikova Dilrabo Muminovna, Tursunov Jahongir Ulug'bek o'g'li**

Budjet daromadlarining shakllanishida egri soliqlarning ta'sirini ko'p omilli ekonometrik modellashtirishda tahlil qilish ....... 297
**Abdunazarova Shahnoza Norqo'chqor qizi**

Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsion jozibadorlikni oshirish yo'llari ....... 302
**Abdullayev Boburjon Akbaralievich**

Barcha tadbirkorlik subyektlariga teng raqobat sharoitini yaratishda soliq imtiyozlarining o'rni ....... 306
**Akbarov Akmalxon Akrom o'g'li**

Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish ....... 310
**Mirzayeva Nargiza Batirovna**

Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv ....... 314
**O. U. Shomurodov, A. A. Suyarov, Z. U. Uroqov, J. S. Urazov, A. T. Ablahatov**

Ways to Use the Experience of Foreign Countries in Creating a Beneficial Business Environment for Entrepreneurship And Improving Taxation ....... 319
**Mukhlisa Ikramova**

Aholi turmush darajasini oshirishda moliyaviy savodxonlikning o'rni va iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ....... 325
**Yusupov Muhammadali Soxib o'g'li, J.D. Xojiyev**

Temir yo'l sanoat korxonalarida ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish bo'yicha xorijiy tajriba ....... 329
**Kadirova Sharofat Amonovna**

Механизм внедрения аутсорсинговой деятельности в АО "Ўзтемирйўлйўловчи" ....... 332
**Н. Э. Кахарова**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasi ....... 337
**Sharipov Bobur Anvar o'g'li**

"STEKLOPLASTIK" MJCHning bozordagi strategik holatini tahlil qilish ....... 342
**Musyeva Shoira Azimovna**

Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari ....... 348
**M. Sh. Nazarova, Z. S. Kazakova**

Methodological Foundations of Bank Lending and Classification of Factors Affecting the Features of Obtaining Loans ....... 353
**Raxmanova Laylo bahodirovna, A. Karimova**

Agrosanoat klasterlarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligiini KPI orqali baholash uslubiyati ....... 357
**Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich**

Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag'al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari ....... 362
**Salamov Ibrohim, Nazarova Maryam Sharifovna, Kazakova Zulayxo Saloxiddinovna, Jonibekov Faxriddin Beknazarovich, Kudratov Rizo Turdibayevich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Xamdamova Nasiba Ablakulovna, Xudayberdiyeva Ma'rifat Umarovna**

Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategiyasi tahlilining o'ziga xos xususiyatlari ....... 369
**Tursunova Shaxnoza Farxod qizi**

Процессы цифровизации АО "Hududgazta'minot" ....... 373
**Хусанов Кахрамон Нишонович**

O'zbekistonda aholi turmush darajasini oshirish yo'llari ....... 378
**Abdullayeva Madina Kamilovna, Eldorbekov G'ofurbek Iskandarbek o'g'li**

Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik subyektlari uchun kredit tizimini takomillashtirish mexanizmi ....... 381
**Bobayev Isroiljon Abdinabiyevich**

Mamlakatga jalb qilingan xorijiy kapitalning tovarlar va xizmatlar importi salohiyatiga ta'sirini ekonometrik modellar bilan baholash ....... 386
**Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘zbekistonda bank xizmatlari raqobatbardoshligini baholash mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari......394
**Sh. Madraimov**

Kapital bozorida sug‘urta kompaniyalar institutsional investor sifatida......397
**Xasanova Lola Mamasharifovna**

Yangi O‘zbekiston strategiyasida institutsional islohotlarni yanada chuqurlashtirish va ko‘p funksiyali raqamlashtirishning ilmiy asoslari......400
**B. B. Berkinov**

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari orqali jinoiy yo‘l bilan olingan daromadlarni legallashtirish mexanizmlari......409
**G‘afurov Umidjon Bahodir o‘g‘li**

Rivojlangan mamlakatlarda keksa fuqarolarning bandligini oshirish kam ta’minlangan aholi qatlamini qo‘llab-quvvatlash usuli sifatida (Yaponiya tajribasi misolida)......413
**Karimov Bekzodjon Ilxomovich**

Tashqi savdoni oshirishda boj-tarif siyosatini takomillashtirish mexanizmlari......420
**Pardayev Ilhomjon G‘ulomjon o‘g‘li**

Финансы или корпоративные финансы......426
**Уринов Бобур Насиллоевич**

In Ensuring Economic Development in the Country Green Economy and its Features......432
**Akhunova Shakhistakhon Nomonjanovna, Abdusattorova Mokhirabonu Abdugoppor kizi**

Tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari......437
**Jo‘rayev O‘ktam Panji o‘g‘li**

Сокращение уровня бедности в Узбекистане......443
**Амирджанова Ситора Суннат кизи**

Paxtachilik sohasida ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishning innovatsion yechimlari va uning foydaga ta’sirini baholash......448
**S. B. Inoyatov**

Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari......453
**Maxmudov Rahimjon Hamid o‘g‘li**

Mahalliy budjet daromadlarining nazariy va ilmiy asoslari......460
**Ollokulova Feruza Mansurovna**

Kambag‘allikni qisqartirish – aholi turmush farovonligini ta’minlashning muhim omili......463
**Usmanov Baxodir Baxtiyorovich**

Raqamli marketingni rivojlantirish zaruriyati......469
**Xalmuxamedova Zeboxon Babaxanovna**

Tijorat banklari o‘rtasidagi raqobatni rivojlantirish orqali fond bozorida aksiyalar narxini barqarorligini ta’minlash istiqbollari......473
**M. Yuldosheva**

Konchilik sanoati korxonalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari......480
**Kurbanova Mehriniso Nematjanovna**

O‘zbekistonda banklar moliyaviy xizmatlari va ular sifatining amaldagi holati tahlili......487
**Mirzayev Mirza Abdullayevich**

Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy samaradorlikning raqobatbardoshligini instituttsional tahlil qilish mexanizmi......492
**Saydullayeva Saodat Abdumajidovna**

Integrasiya sharoitida to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi......499
**Ziyayeva Muhtasar Mansurdjanovna**

Auditorlik tekshiruvini tashkil etish va o‘tkazish jarayonlarini takomillashtirish......503
**Karamatova Noiba Husnitdinovna**

Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari......510
**Mamatov Mamajan Axmadjonovich**

Экономическое сознание и экономическое мышление: теоретический анализ......517
**Пардаев Мамаюнус Каршибаевич, Мухаммедов Мурод Мухаммедович**

O‘zbekiston respublikasi tijorat banklari tomonidan qurilish korxonalarini kreditlashni takomillashtirish yo‘llari......522
**Sultanov Baxram Begdullayevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Роль искусственного интеллекта в современных технологиях медиаобразования в высших учебных заведениях ..... 526
**Самигова Гуландом Абдужаббаровна**

Talabalarga moliyaviy yordam dasturlari va ularning ta'lim sifatiga ta'siri ..... 534
**Mirzayeva Muhlisa Ubaydullo qizi**

Mintaqaviy investitsion jozibadorlik va investitsion siyosat: nazariy talqin ..... 539
**Muminov Akmal Tulkunovich**

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida oliy ta'lim tizimining ta'siri ..... 543
**Nasimov Adiz Azamat o'g'li, Baxtiyorova Jasmina Jasurovna, Axrorov Zarif Oripovich**

Respublikada fermer xo'jaliklarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish va agroxizmatlar bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari ..... 548
**Shukurov Ilxom Safarboyevich**

Turli mamlakatlarda oliy ta'limni moliyalashtirish yo'llari ..... 555
**Umarova Moxigul Maxmayunus qizi**

Dehqonchilikni innovatsion asosda rivojlantirishning xorijiy tajribasi ..... 560
**Yuldashev G'iyos Turabekovich**

Tijorat bank xizmat turlarini islomiy bank xizmatlari orqali rivojlantirish istiqbollari ..... 564
**Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna**

Qishloq xo'jaligi mahsulotini baholash va hisobga olishning uslubiy jihatlarini takomillashtirish ..... 570
**Boltayev Abror Sayitmuradovich**

Секреты интересного урока в начальной школе ..... 577
**Гараева Олеся Владимировна**

Iqtisodiyotni barqaror rivojlanishda yashil iqtisodiyotning o'rni ..... 580
**Ibragimova Gulchehra Toxirovna**

Mahsulot va xizmatlarni raqamli transformatsiyasini amalga oshirish algoritmi ..... 584
**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, Bobojonov Azizjon Babaxanovich, Abdurakhmonov Abdumalik Abdurashidovich**

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish vositasi sifatida ..... 591
**Nabiyev Feruz Nurmurodovich**

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

# IQTISODIYOTNI BARQAROR RIVOJLANISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING O'RNI

**Ibragimova Gulchehra Toxirovna**
Fan va texnologiyalari universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada insoniyatning turmush darajasining o'sishi mamlakat iqtisodiy o'sish darajasi asosida ta'minlanishi va bu ekologik xavf evaziga, xususan, demografik o'sish, tabiiy resurslar zaxirasi muttasil kamayib borayotgani xususida fikri yuritiladi. Yosh avlodning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotning ta'limdagi o'rni haqida fikir, mulohazalar va takliflar kiritilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, iqtisodiy o'sish, tabiiy kapital, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy madaniyat.

Abstract: The article considers the fact that the growth of the standard of living of mankind is ensured on the basis of the level of economic growth of the country, and due to this environmental risk, in particular demographic growth, a decrease in natural resources reserves. Thoughts, comments and suggestions on the role of the green economy in education and in the development of the economic culture of the younger generation are included.

Key words: green economy, sustainable development, environmental sustainability, economic growth, economic development, economic culture.

Аннотация: В статье рассматривается тот факт, что рост уровня жизни человечества обеспечивается на основе уровня экономического роста страны, и счет этого экологического риска, в часности демографического роста, снижение запасов природных ресурсов. Включены мысли, коментарии и предложения о роли зеленой экономики в образовании и в развитии экономической культуры молодого поколения.

Ключевые слова: зеленая экономика, устойчивое развитие, экологическая устойчивость, экономические рост, экономическое оброзование, экономическая культура.

## KIRISH

Bugungi 21-asr boshiga kelib jahon bo'ylab kundan kunga tovar va xizmatlar bozorida yangi turdagi innovatsion tovar va xizmatlar taklifi shiddatli tus olmoqda. O'z o'rnida iqtisodiyot rivojlangan sari inson ehtiyojlari cheksizligi yanada oshib bormoqda. Iqtisodiy rivojlanish ishlab chiqarish va iste'molning doimiy o'sishi bilan birga keladi. Bir tomondan, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi aholi farovonligini oshirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyoda barqaror rivojlanishga o'tish zarurati asosan iqtisodiy rivojlanish va atrof-muhitning buzilishi o'rtasidagi nomutanosiblikni kuchayishi bilan bog'liq. So'nggi 30 yil ichida jahon YAIMda sezilarli o'sish kuzatidi va uning sur'ati 4 barobardan ortiqni tashkil etildi. Jahon iqtisodiyotidagi ushbu holat yuz millionlab odamlarning turmush darajasini oshishiga sabab bo'ldi. Biroq bu o'sishga tabiiy kapitalga nisbatan global ayovsizlik va ekotizim degradatsiyasi tufayli erishildi.

Hozirgi vaqtda insonning tabiat qonunlari va ekologik xavflar haqidagi bilimlarining yetarli emasligi sayyoradagi og'ir ekologik inqirozga olib keldi.

Shuning uchun ham ekologik oqibatlari noaniq bo'lgan tabiatni ekspluatatsiya qiluvchi yangi megaproyektlarga ham juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni talab etadi. Aks holda, ushbu xatarlar juda xilma-xil bo'lib, ular iqlim o'zgarishi va qurg'oqchilik kabi turli xil muammolarga olib keladi. Yangi yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi atrof-muhit uchun xavflarning sezilarli darajada kamayishi va ushbu xavflarning tanazzulidir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi davrda dunyohozirida siyosatchi va iqtisodchilarning asosiy e'tibori mamlakatlar iqtisodiyotining yuqori darajada iqtisodiy o'sishni qo'lga kiritishidir. Ha, bu iqtisodiy nuqtayi nazardan to'g'ri, mamlakatlarning yalpi ichki maxsulotining hajmi qanchalar oshib borishi – bu mamlakat qudratini, aholining farovon turmush tarzini ta'minlanishini va mamlakatni dunyohozirdagi tutgan o'rnini belgilaydi. Ammo, bu nimani, qanday oqibatlarga olib kelishi hisobiga amalga oshirilayotganligini e'tiborga olish vaqti allaqachon yetib kelgan-ku. Ushbu masala bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri darajasiga yetib keldi. Bu borada ekolog– iqtisodchilar Amerika qo'shma shtatlarning radikal ekologi Edvard Abbeyning "o'sish uchun o'sish– saraton hujayrasi mafkurasi", degan fikriga ko'proq xayrixoh bo'lishadi. Shunga qaramay bugungi kapitalistik mafkurada iqtisodiy o'sish insonlarni halokatga olib borishi, ularning farovonligini yaxshilanmasligi muhim emas balki, muhimi jahon bozoridagi biznes, ko'proq pulni qo'ldan qo'lga oqib yurishi va yuqori darajadagi foydaga ega bo'lish. Insonlarning moddiy jihatdan naqadar ta'minlanganlik darajasi asosida hayot sifatini aniqlash bu yetarli ko'rsatkich bo'la olmaydi. Chunki bunday iqtisodiy o'sish sayyoramiz tabiiy boyliklardan ayovsiz foydalanish, havo havzasini ifloslanishi, ichimlik suvini kamayishi, tabiiy ofatlarning ko'payishi va tezlashishi hisobidan erishilganligi nafaqat sayyoramiz, balki hayotimiz sifatini pasaytirgani uchun ham katta muammo hisoblanadi.

Salbiy ekologik tendensiyalarning davom etishi butun insoniyat uchun ham, alohida mamlakatlar uchun ham o'ta xavfli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Dunyo aholisi 2040-yilga kelib 7 milliarddan 9 milliard kishiga ko'payadi va o'rta sinf iste'molchilarining soni kelgusi 3 yil ichida 20 milliard kishiga ko'payadi va resurslarga bo'lgan talab shiddatli ravishda oshadi. 2030-yilga kelib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji kamida 50%, energiya 45% va suv resurslari 30% ga oshadi va bularning barchasi ekologik chegaralar keng iqtisodiy o'sishga yangi cheklovlar qo'ygan bir paytda sodir bo'ladi. Shuningdek, kelgusi o'n yilliklarda jahon oziq-ovqat narxlari real ravishda 30-50% ga ko'tarilishini kutishimiz mumkin, bu esa narxlarning beqarorligini oshiradi va yuz millionlab odamlarning ahvolini yomonlashtiradi [3].

Ushbu holat asosan aholini sonini o'sib borishi bilan bog'liq holda yuzaga kelishi prognoz qilinmoqda, lekin shu bilan birga ko'zda tutilmagan tabiat injiqliklari, insonlarning tabiatga bo'lgan ayovsiz munosabatlari, siyosiy va biologik urushlar va boshqa global omillarning yuzaga kelishi jarayonni yanada tezlashtirishi va yomonlashtirishi mumkin.

Bugungi kunda ekologik barqaror rivojlanishga o'tish va yashil iqtisodiyotni shakllantirish dolzarb masalalardan bo'lib, yashil iqtisodiyot global iqtisodiy va ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot – bu insonning yer resurslariga mas'uliyatli munosabatini nazarda tutadigan iqtisodiy rivojlanish modeli. Bu boylikning o'sishi va tabiiy resurslarni saqlash o'rtasida oqilona murosani topishga qaratilgan. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasini shakllantirish uchun asoslar o'tgan asrning 80-yillari oxirida barqaror rivojlanish konsepsiyasi doirasida yaratilgan. Barqaror rivojlanishlikning ko'plab ta'riflari mavjud, lekin eng keng tarqalgan va umumiy qabul qilingan ta'rif 1987-yilda G. H. Brundland rahbarligi ostidagi BMT komissiya tomonidan taklif qilingan ta'rif bo'lib, "Barqaror rivojlanish-bu kelajak avlodning hayotiy ehtiyojlarini xavf ostida qo'ymasdan, zamonaviy avlodlarning zaruriyatlarini qondira oladigan rivojlanishdir" [6].

Barqaror rivojlanish o'z tarkibiga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan rivojlanishni oladi va uning ahamiyati qachonki uchchala tarkib mos holda rivojlanishining ta'minlanishidadir.

Yashil iqtisodiyot konseptual hujjatlarda Yevropa yashil iqtisodiyotining rivojlanishi ekotizimlar (tabiiy kapital), iqtisodiyotni (jismoniy kapital) va jamiyatni (inson kapitali) birlashtirgan yaxlit tizim sifatida qaraladi va mos ravishda ularning maqsadlari bilan aniqlanadi [3].

1-jadval: Yashil iqtisodiyot

| № | №Tarkib | Maqsad |
|---|---|---|
| 1 | Ekotizim (tabiiy kapital) | Ekologik barqarorlikni qo'llab-quvvatlash |
| 2 | Iqtisodiyot (jismoniy kapital) | Foydalanilayotgan resurlarning samaradorligini oshirish |
| 3 | Jamiyat (inson kapitali) | Umumiy javobgarlik va tengsizlikni qisqartirish |

Yashil iqtisodiyot salbiy oqibatlarni bartaraf qilish bilan kurashish emas balki, ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini bartaraf etish bilan ishlaydigan yondashuv bo'lib, iste'molchilarning xulq-atvorlarini tubdan o'zgartiradigan "yashil" texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyotdir. Bularga quyidagilar kiradi:

- energiya samaradorligi va muqobil energiya;
- elektr energiyasini boshqarish tizimlari;
- ekologik bezarar transport;
- chiqindilar, havo va suv chiqindilarini boshqarish.

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar tomonidan yashil iqtisodiyot konsepsiyasi u yoki bu shaklda allaqachon qabul qilingan bo'lib, unga erishish choralari global retsessiyaga qarshi kurash vositasi sifatida ko'rib chiqilmoqda [5].

Bu borada O'zbekiston BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlari hamda Iqlim bo'yicha Parij bitimiga qo'shilgan. Shuningdek, 2019-yilda O'zbekiston "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi"ni qabul qildi. Ushbu strategiyada mamlakatda uglerod sarfini keskin kamaytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik toza va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi, samarali energiya manbalaridan keng foydalanish ko'zda tutilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha dastur va 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash bo'yicha xarakatlar rejasi belgilab olindi [1].

Shu bois "yashil" va "aqlli" iqtisodiyotlarni yaratish barqaror taraqqiyot va rivojlanishni ta'minlashga qodir bo'lgan innovatsiyalar, nou-xau va modellarni ishlab chiqarishda imkoniyatlarni kengaytirish uchun poydevor bo'lishi mumkin [7].

Xar bir mamlakat xukumati milliy sharoitlarini hisobga olgan xolda global muammolarga nisbatan o'z maqsadlarini global tavsifdagi tavsiyalar shaklida shakllantiradi. Ushbu global jarayonni milliy rejalashtirishda asosan mamlakat siyosatchi, iqtisodchi va ekologlari faol qatnashadilar. Barqaror rivojlanishni ishlab chiqish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik sohalarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tegishli jarayonlarning o'zaro bog'liqlikni tan olish va e'tiborda tutish ham o'ta muhimdir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev Yangi O'zbekiston strategiyasi kitobida "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini hayotga tatbiq etish orqali iqtisodiyotning energiya va resurs sig'imdorligini qisqartirish, ishlab chiqarishga tejamli texnologiyalarni keng joriy qilish, qayta tiklanuvchi texnologiyalardan foydalanishni kengaytirish, atom energetikasini rivojlantirish maqsadga muvofiqligini aytib o'tdi [2].

Yangi iqtisodiyotning muhim sifati iqtisodiy qarorlarni qabul qilish jarayonda tabiatni iqtisodiy baholashni adekvat holatda kiritilish ta'minlanishi kerak. Iqtisodiyot nazariyasidagi kabi amalda ham tabiiy boyliklar (resurslar va xizmatlar) qiymatini oshishiga aniq zaruriyat bor [3].

Bugungi kunga kelib dunyo bo'ylab tabiiy kapitalni faqat tabiiy resurslar sifatida munosabatda bo'lish kuchayib, ulardan foydalanishga nisbatan cheklov to'siqlari kuchli bo'lib bormoqda. Endilikda mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy o'sish uchun tabiy resurlarni boshqa funksiyalarini ham hisobga olish kerak. Bu har qanday kapital kabi tabiiy kapitalni ham nazariy va amaliy jihatdan uning barcha tarkibiy qismlarining iqtisodiy ahamiyatini, daromad va foyda olish qobiliyatini hisobga olishga olib keladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Eng umumiy shaklda tabiiy kapitalning to'rtta funksiyasini ajratish mumkin:

- resurs (tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun tabiiy resurslar bilan ta'minlash);
- tartibga soluvchi ekologik xizmatlar (ifloslanish va chiqindilarni assimilyatsiya qilish, iqlim va suv rejimini tartibga solish va boshqalar.);
- estetik, axloqiy, madaniy, tarixiy jihatlar bilan bog'liq tabiat xizmatlari (ma'naviy ekologik xizmatlar);
- insonlar va atrof-muhit salomatligini ta'minlash (bu funksiya iqtisodiyot uchun hali ham yangi, ma'lum darajada u tabiiy kapitalning dastlabki uchta funksiyasidan kelib chiqadi, ammo rivojlanish jarayoni uchun salomatlik ustuvorligini ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin )

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, tabiatni talab qiladigan texnologiyalarni resurslarni tejaydigan va energiya tejaydigan texnologiyalar bilan almashtirish orqali allaqachon ekspluatatsiya qilingan tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash va atrof-muhitni muhofaza qilishga sarmoya kiritish zarur. Shuningdek, mavjud bo'lgan eng yaxshi texnologiyalarni qo'llash, xom ashyoni qayta ishlashni chuqurlashtirish va diversifikatsiya qilish va fan yutug'laridan foydalanish lozim. Bu aholi farovonligini oshirish, xom ashyo qazib olish va tabiiy kapitalni ekspluatatsiya qilishning hozirgi darajasida YAIMni 2-3 barobar oshirish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa kilib aytganda barqaror rivojlanish konsepsiyasi nafaqat ekologik muammolarga qarshi kurashishning xalqaro va davlat darajasidagi vazifasi, balki zamonaviy oila, jamiyat, biznes va innovatsiyalarga tegishli ijtimoiy-madaniy yo‘nalish subyektlarining ham asosiy vazifasidir. Pedagogik faoliyat tajribamga asoslanib bizning fikrimizcha “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tishda avvalo ta’limni oiladan, so‘ngra maktabgacha ta’lim muassasalaridan boshlash lozim deb bilaman. Chunki bolaga asosiy iqtisodiy tarbiya va ko‘nikma oiladan boshlanadi. Iqtisodiyot va oila ta’limi bir qarashda mutlaqo mos kelmaydigan tushunchalar bo‘lib tuyuladi. Ammo zamonaviy bola hayotining birinchi yillaridanoq o‘zini:

- o‘yinchoqlarini asrab avaylashni, oziq-ovqatni isrof etmaslikni;
- kiyim kechakni toza tutish va asrab avaylab kiyishni;
- elektr energiya, suv va boshqa inson hayoti uchun zarur bo‘lgan ne’matlardan tejamli foydalanishni;
- o‘simliklarni yanchimaslikni, ularni parvarish qilishni, ular bilan oziqlanishni;
- chiqindilarni har yerga tashlamaslik, ularni maxsus joyga tashlashni;
- kitob, daftar va boshqa o‘quv qurollari asrab, avaylab foydalanishni;
- o‘zgalar mehnatini qadrlash kabi iqtisodiy va ekologik tushunchalar va jarayonlar bilan to‘ldirilgan iqtisodiy muhitda topadi.

Shu o‘rinda bizning takliflarimdan yana biri oliy ta’lim muassasasi talabalarining iqtisodiy madaniyatlarini rivojlantirish jarayonida oliy ta’lim tizimida o‘qitilayotgan fanlarga o‘z yo‘nalishiga ko‘ra barqaror rivojlanishga oid bo‘lgan tushunchalarni va ularning ahamiyatini, majburiyati va natijalarini kiritish lozim. Masalan, “Iqtisodiyot nazariyasi” faniga barqaror rivojlanish tushunchasi uning dolzarbligi va ahamiyatini, “Tadbirkorlik asoslari” yoki “Biznesni boshqarish” kabi fanlarga tadbirkorlik faoliyatida barqaror rivojlanish zaruriyatlarini, tadbirkorlik faoliyati uning majburiyat va ma’suliyatlariga oid mavzular berilishi lozim. O‘zbekistonda endi rivojlanib kelayotgan fanlardan “Xulq-atvor iqtisodiyoti” fanida iste’molchilarga nisbatan ne’matlardan foydalanishda albatta ularning ekologik xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi tushunchalar kiritish zarur. Shuningdek, barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun uning huquqiy negizlarini yaratish lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/docs/6303230.
2. Mirziyoyev.Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. –Toshkent. –“O‘zbekiston” nashriyoti, 2021.– 464 b.
3. Зелёная экономика и цели устойчивого развития для России: коллективная монография / Под науч. ред. С. Н. Бобылёва, П. А. Кирюшина, О. В.Кудрявцевой. – М.: Экономический факультет МГУ имени М. В. Ломоносова, 2019. – 284 с.
4. Бобылев С. Н., Захаров В. М. Модернизация и устойчивое развитие. М.: “Экономика”, 2011.
5. UNDESA. A guidebook to the Green Economy. –2012.
6. Наше общее будущее. Доклад международной комиссии по окружающей среде и развитию: Пер. с англ. / Под ред. и с посл. Евтеева С. А. и Перелета Р. А. –М.: Прогресс. –1989
7. M. Yo‘ldoshev. Ekologik iqtisodiyot: Nazariy va amaliy tadqiqotlar. (Monografiya).–T.: “Ilm-fan va innovatsiya”, 2023, –240 bet.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.